

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ ЭДЕБИЯТ

Айтбаев Д. Т. Асимметрик дуализм коммуникациянинг семиотик тамойили сифатида	6
Yuldasheva Sh. Sh. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'zbek tilini qardosh tillardagi guruhlarda o'qitishning o'ziga xosliklari va tajribalar	13
Arifjanova O. Q. Ingliz tilini o'qitishdagi yangi texnikalar: o'qish(reading) va eshitib tushunish(listening) misolida	20
Неъматова С. Глубокие корни развития литератур	25
Мирзорохимов О. К. Для чего предназначен словарь	33

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yusupova M. A., Baxtiyorova S. E. Pedagog tarjimonlarni tayyorlash zaruriyati	40
Jabborova O. M., Baxtiyorova S. E. Bo'lajak ingliz tili pedagoglarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan tanishtirish yo'nalishlari	44
Narimbetova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	48
Umarova Z. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari	52
Umarova Z. A., Nazirjonova M. B. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari	60
Xusnetdinov U. I. Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba yoshlarida ekologik madaniyatni shakllantirish g'oyasining rivojlantirish yo'llari	64
Qarshiboyeva X. K. TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari	72
Beketov N. A. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni boshqarish	78
Beketov N. A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tarbiya funksiyalari	84
Quzmanova G. B., Davlatova M. A. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS hamda PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	95
Kuchkinov A. Yu., Tilovova S. B. EKO-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv	100
Qorajonova B. T. Maktablarda psixologik maslahat tashkil etishning samarali shakl va uslublari	110
Абдурахмонова У. Н. Педагогик фаолиятда инновациялардан самарали фойдаланишни ташkil этиш йўллари	117
Turayeva G. E. Pedagogik jarayonni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyat va afzalliklari	121
Xurramova M. A. Ta'lim mazmunini shakllantirishda germeneytik yondashuv imkoniyatlari	126
Achilov T. S. Vatanparvarlik tarbiyasi – maktab o'quvchilarining qiymat-semantik kompetentsiyasini shakllantirishning muhim elementi sifatida	134
Abdusalilova D. Madaniyatlararo muloqot yo'nalishida «ijtimoiy-madaniy kompetentlik» tushunchasi	141
Мусурманкулова М. Н. Изучение сопоставительно-диаектологической компетенции в современной педагогике	146
Шамиева О. Р. Роль дисфункциональных родителей в эмоциональном благополучии ребёнка	152
Ochilov E. Yu. Role of ai-powered chatbots in increasing efficiency of learning processes	156



PEDAGOG TARJIMONLARNI TAYYORLASH ZARURIYATI

Yusupova M. A.

(PhD)

Baxtiyorova S. E.

CHDPU talabasi

Tayaych soʻzlar: pedagog, tarjimon, taʼlim, kadr, tayyorlash, zaruriyat, ahamiyat, bilim, koʻnikma.

Ключевые слова: педагог, переводчик, образование, кадры, подготовка, необходимость, значение, знание, навыка.

Key words: pedagogue, translator, education, personnel, training, necessity, importance, knowledge, skills

“Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning asosiy yoʻnalishini taʼlim islohotlari tashkil etadi[1]. Bunda eng muhim masalalardan biri taʼlim tizimining barcha bosqichlari va turlari boʻyicha oliy maʼlumotli pedagoglar tayyorlashdan iborat. Shu jihatdan bugungi kunda Oʻzbekiston jamiyatida pedagog tarjimonlarni tayyorlash dolzarb boʻlib turibdi.

Pedagog tarjimonlar – bu muayyan xorijiy til boʻyicha oliy maʼlumotli mutaxassislarni tayyorlash, ularni amaliy faoliyatga yoʻnaltirish va pedagog – tarjimonlik kompetensiyalarini tarkib toptiruvchi kadrlardir[2]. Unda asosiy eʼtibor muayyan xorijiy til boʻyicha oliy maʼlumotli mutaxassislarni tayyorlovchi oʻqituvchilar majmuini tarkib toptirish va ularning faoliyati vositasida mamlakatimizda professional tarjima kadrlarga ega boʻlish nazarda tutiladi.

Hozirgi zamon mamlakatimiz oliy taʼlim muassasalari davlat, davlat-xususiy sheriklik va nodavlat muassasalari vositasida mutaxassislarni tayyorlash ishini amalga oshirmoqda. Shu jihatdan mazkur taʼlim muassasalarida Ingliz tili ixtisosligiga asoslangan tarjimonlar ham tayyorlanayotganligi amaliy jihatdan muhim masaladir. Ayni paytda, tarjimon mutaxassislarni tayyorlovchi pedagog tarjimon kadrlar tayyorlash ham dolzarb boʻlib turibdi. Mazkur masalaning zaruriyati va ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:



1. Ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish zaruriyati. Mamlakatimizning maktabgacha ta'lim bosqichidan oliy ta'lim bosqichigacha bo'lgan tizimda xorijiy tillar izchil o'qitilmoqda. Bunda asosiy til sifatida Ingliz tili tanlangani ma'lum. Shu jihatdan ingliz tili bo'yicha tarjimon mutaxassislar tayyorlash ishlari bugungi talablar asosida tashkil etilgan. Bu masalalar ta'lim tizimida xorijiy tillarni, jumladan, Ingliz tilini o'qitishni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruriyat bo'lib turibdi. Chunki ta'lim oluvchilar maktabgacha va maktab ta'limi bosqichida Ingliz tili bo'yicha savodxonlik, bilim va so'zlashuv ko'nikmalarini egallashmoqda. Ta'limning keyingi bosqichlaridan boshlab mazkur tilda so'zlashuvchi ta'lim oluvchilar zaruriyat nuqtayi nazaridan tarjimonlik ishiga qiziqish bildirmoqda. Shu jihatdan tarjimonlik – bu til vositasida amalga oshiriladigan san'atdir. Bu omil ta'lim bosqichlarida xorijiy tillarni va asosiy tillardan biri sifatida tanlangan Ingliz tilini o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarda tarjimonlik layoqatini shakllantirishni taqozo etadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, xorijiy tilni biluvchilarda tarjimonlik layoqatini shakllantirish uchun pedagog – tarjimon mutaxassislarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, tarjimonlik bu shunchaki tushuntirish yoki izohlash emas, balki xorijiy til vositasida insonga ruh berish va uni yo'naltirish omilidir. Bu omil pedagog tarjimonlar vositasida mamlakatimiz ta'lim bosqichlarida xorijiy tillarni o'qitishni zaruriyat darajasiga ko'tarishni taqozo etadi.

2. Tarjimon pedagoglar tayyorlash zaruriyati. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha shakldagi oliy ta'lim muassasalarida Ingliz tili bo'yicha tarjimonlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Mazkur masalani o'rganish shuni ko'rsatadiki, oliy ma'lumotli tarjimonlarda bilim va ko'nikma yetarli bo'lgani holda, ularda tarjimonlik asoslari bo'yicha ta'limiy-tarbiyaviy kompetensiyalar yetishmaydi. Chunki bunday toifadagi mutaxassislarni tayyorlashda asosiy e'tibor til o'rgatish va ta'lim oluvchining nutqini o'stirishga qaratilmoqda. Bularning barchasi oliy ta'lim muassasalarida tarjimon pedagog mutaxassislar tayyorlashni taqozo etadi.

Tarjimon pedagog mutaxassislar xorijiy tillarni o'rganuvchi va tarjimonlikka qiziquvchi ta'lim oluvchilarni pedagogik hamda psixologik qonuniyatlarga asosan oliy ma'lumotli kadrlar sifatida tayyorlaydi. Bundan tashqari, Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillar, jumladan, Ingliz tilini o'qitish bo'yicha qulay, oson va asosli metodikaga tayangan tarjimon pedagoglar toifasiga ega bo'linadi. Umuman bunday toifadagi pedagoglar faoliyatida tarbiya+ta'lim+amaliyot tizimi ustuvor bo'ladi. Bugungi kunga qadar ta'lim+tarbiya+amaliyot tizimi amalda bo'lib kelayotganligi sir emas.



Shu jihatdan tarjimon pedagoglar xorijiy tilni o'rgatishdan eng avvalo tarbiya masalasini ilk rejaga qo'yadi.

3. Tarjimon pedagoglarni tayyorlashning muqobil shakllari. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida tarjimon pedagoglarni tayyorlashning auditoriya shakli an'anaviy tus olgan va unda maxsus o'quv dasturlari asosida mutaxassislar tayyorlanishga asosiy e'tibor qaratiladi. Ayni paytda, jamiyatimizning tarjimon pedagoglarga bo'lgan ehtiyoji mazkur toifa mutaxassislarni tayyorlashning muqobil shakllarini o'rganish va amaliyotga joriy etishni ham taqozo etadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida tarjimon pedagoglarni tayyorlashning bir necha muqobil shakllari mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim. Bunday shakllarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- a) qo'shimcha o'quv Dasturlari asosida tashkil etiladigan maxsus mashg'ulotlar vositasida tayyorlash shakli;
- b) qo'shma ta'lim Dasturlari asosida tayyorlash shakli;
- v) hamkorlik vositasida tayyorlash shakli.

Qo'shimcha o'quv Dasturlari asosida tarjimon pedagoglarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra, bunday Dasturlar shakllantirilib mashg'ulotlar talabalarining qiziqishlari va xohishlari asosida erkin tashkil etiladi. Mazkur qo'shimcha mashg'ulotlarda oliy ta'lim muassasalari va tajribali tarjimon-mutaxassislarning faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga ega. Shu tariqa oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan foydalangan holda davlat buyurtmasi asosida tarjimon pedagoglar mutaxassislarga maqsadli ega bo'lish mumkin.

Bugungi kunda turli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan mamlakatimizda qo'shma ta'lim Dasturlarini amalga oshirish an'anasi tarkib topdi. Shu ma'noda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan yoki ixtiyoriy hamkorlikka qiziqish bildiradigan xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda tarjimon pedagoglarni tayyorlash mumkin. Bundan mamlakatimiz ta'lim muassasalari va xorijiy oliy ta'lim muassasalari teng manfaatdor bo'lishini ta'kidlab o'tish joiz.

Mamlakatimizda hamkorlik asosida oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash tajribasi ham yuzaga kela boshlanadi. Shu jihatdan tarjimon pedagoglarni tayyorlashda xorijiy nodavlat tashkilotlari va Respublikamizda akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim Dasturlarini amalga oshirish ham kutilgan samarani beradi. Bunday hamkorlikda tomonlarning moliyaviy, didaktik va amaliy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.



E'tibor berilsa, tarjimon pedagoglarni tayyorlash zaruriyati eng avvalo amaliyotga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Chunki bu o'rinda yangi yo'nalishdagi pedagog kadrlarni tayyorlash nazarda tutilmoqda.

Tarjimon pedagoglarni tayyorlashning ahamiyatiga e'tibor berish ham muhimdir. Bunday ahamiyatni quyidagilar tashkil etishini eslatib o'tish joiz:

a) pedagogik va psixologik qonuniyatlar, vositalar va metodika bilan qurollangan tarjimon pedagoglarga ega bo'lish;

b) bunday tajribaga ega kadrlar vositasida ta'lim oluvchilarning tarjimonlik layoqatini ta'lim va tarbiyaviy tamoyillar asosida shakllantirishga erishish;

v) jamiyatimizda butunlay yangi yo'nalishdagi va yangi texnologiyalar bilan qurollangan tarjimon pedagoglar toifasini tarkib toptirish.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, muayyan til bo'yicha tarjimonlik san'atiga ega bo'lish faqat pedagogik ta'lim va tarbiya g'oyasi, nazariyasi hamda metodikasiga asosan amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan tarjimon pedagoglar ikki yo'nalishni o'zida mujassam etgan mutaxassislar hisoblanadi: 1) tarjimonlik san'ati mahoratiga ega bo'lish; 2) pedagoglik malakasi bilan qurollanish. Buning natijasida tarjimon pedagoglar jamiyatimizning eng muhim mutaxassislaridan bir toifasini tashkil etadi[3].

Shunday qilib tarjimon pedagoglarni tayyorlash zaruriyati va ahamiyatini idrok etish dolzarb bo'lib turibdi. Bu borada yangi dasturlar, yangi o'quv ishlanmalari va mashg'ulotlarning yangicha didaktikalari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki jamiyatimizda tarjimonlik va pedagoglik san'atlarini uyg'unlashtirilgan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham zaruriyat bo'lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www.ziynet.uz
2. Istoriya mirovoy pedagogike. // www.pedagog.ru
3. Baxtiyorova S.E. Bo'lajak tarjimon pedagoglarni tayyorlash zaruriyati. // Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalariJ muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, 2022-yil 18-noyabr, 333-336 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada pedagog tarjimonlarni tayyorlash zaruriyati va ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan, mazkur masalaga doir yondashuvlar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье размышлено о необходимости и значении подготовка педагогических переводчиков и изложено подходы по данному вопросу.

SUMMARY

The article discusses the necessity and importance of training pedagogic translators, and describes approaches to this issue.